

## O'zbekiston Respublikasida bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari 2026- yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-may oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **533 079,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-may oylari bilan solishtirganda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining real o'sishi **16,5** %ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2025- yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi **434 354,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **13,3** %ga o'sdi. Mazkur press-relizda keltirilgan ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushishiga qarab keyingi nashrlarda aniqlashtirilishi mumkin.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va o'sish sur'ati**  
yanvar-may



### II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2026 yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **218 941,1** mlrd so'm (umumiy hajmdagi ulushi **41,1** %)ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025 yilning mos davriga nisbatan **118,6** %lik real o'sish indeksiga teng bo'ldi.

Viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**38 406,2** mlrd so'm, umumiy hajmdagi ulushi **7,2** %), Toshkent (**36 208,5** mlrd so'm, ulushi **6,8** %), Farg'ona (**34 756,1** mlrd so'm, ulushi **6,5** %) va Namangan (**27 004,3** mlrd so'm, ulushi **5,1** %) viloyatlarida qayd etildi. Sirdaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich **7 395,7** mlrd so'mni yoki umumiy hajmning **1,4** %ini tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari

2026- yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi <sup>1</sup></b>	<b>533 079,2</b>	<b>100,0</b>	<b>116,5</b>
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16 844,2	3,2	116,9
Andijon viloyati	25 543,2	4,8	116,7
Buxoro viloyati	20 641,4	3,9	115,7
Jizzax viloyati	11 910,0	2,2	116,6
Qashqadaryo viloyati	25 203,8	4,7	115,5
Navoiy viloyati	12 827,8	2,4	119,6
Namangan viloyati	27 004,3	5,1	115,9
Samarqand viloyati	38 406,2	7,2	116,3
Surxondaryo viloyati	17 228,2	3,2	117,1
Sirdaryo viloyati	7 395,7	1,4	116,7
Toshkent viloyati	36 208,5	6,8	115,6
Farg'ona viloyati	34 756,1	6,5	116,4
Xorazm viloyati	18 707,5	3,5	115,6
Toshkent shahri	218 941,1	41,1	118,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori real o'sish indeksleri Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Navoiy (**119,6 %**), Surxondaryo (**117,1 %**), Sirdaryo (**116,7 %**), Andijon (**116,7 %**), Jizzax (**116,6 %**), Farg'ona (**116,4 %**), Samarqand (**116,3 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**116,9 %**) kuzatildi.

2026- yilning yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 915,0** ming so'mni, 2025- yil yanvar-may oylarida esa **11 545,7** ming so'mni tashkil etdi. Real o'sish sur'ati **114,4 %** darajasida qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **68 698,2** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-may oylari bilan solishtirganda **12 956,0** ming so'mga oshdi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich Navoiy (**11 520,3** ming so'm), Toshkent (**11 430,9** ming so'm) va Buxoro (**9 784,5** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori darajada shakllandi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**5 708,7** ming so'm) qayd etildi.

<sup>1</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-may

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>13 915,0</b>	<b>114,4</b>
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 194,7	115,5
Andijon viloyati	7 240,5	114,7
Buxoro viloyati	9 784,5	114,1
Jizzax viloyati	7 585,5	114,5
Qashqadaryo viloyati	6 767,2	113,2
Navoiy viloyati	11 520,3	117,8
Namangan viloyati	8 447,6	113,8
Samarqand viloyati	8 752,0	114,1
Surxondaryo viloyati	5 708,7	114,5
Sirdaryo viloyati	7 802,2	114,8
Toshkent viloyati	11 430,9	113,7
Farg'ona viloyati	8 214,0	114,3
Xorazm viloyati	9 028,3	113,5
Toshkent shahri	68 698,2	116,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yuqori o'sish sur'ati Navoiy viloyatida (**117,8 %**) qayd etildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning yuqori o'sish sur'ati Sirdaryo (**114,8 %**), Andijon (**114,7 %**), Surxondaryo (**114,5 %**), Jizzax (**114,5 %**), Farg'ona (**114,3 %**), Samarqand (**114,1 %**), Buxoro (**114,1 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**115,5 %**) va Toshkent shahrida (**116,1 %**) qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **296 398,7** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **55,6 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-may oylari bilan solishtirganda **115,9 %**ni tashkil etdi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona (**75,1 %**), Surxondaryo (**73,8 %**), Namangan (**72,9 %**), Qashqadaryo (**72,9 %**), Andijon (**72,8 %**), Jizzax (**71,7 %**), Buxoro (**71,0 %**), Toshkent (**70,7 %**), Xorazm (**69,2 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**70,6 %**) kuzatilmoqda. Bu esa mazkur hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik tadbirkorlik subyektlari muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**41,2 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **90 118,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi boshqa hududlarga nisbatan birmuncha past bo'lib, 2026- yilning yanvar–may oylarida **4 990,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari**  
2026- yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>296 398,7</b>	<b>55,6</b>	<b>115,9</b>
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11 892,1	70,6	113,5
Andijon viloyati	18 591,0	72,8	114,5
Buxoro viloyati	14 652,0	71,0	119,8
Jizzax viloyati	8 536,6	71,7	112,6
Qashqadaryo viloyati	18 368,2	72,9	114,6
Navoiy viloyati	7 324,7	57,1	117,2
Namangan viloyati	19 684,5	72,9	114,1
Samarqand viloyati	24 904,7	64,8	113,3
Surxondaryo viloyati	12 710,8	73,8	114,5
Sirdaryo viloyati	4 990,2	67,5	116,4
Toshkent viloyati	25 582,1	70,7	112,6
Farg'ona viloyati	26 098,9	75,1	115,1
Xorazm viloyati	12 944,5	69,2	110,6
Toshkent shahri	90 118,4	41,2	117,7

**III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari**

2026-yilning yanvar–may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'sishining asosiy omili savdo, moliyaviy, yashash va ovqatlanish, shuningdek transport xizmatlari hajmining o'sishi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, sohani rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan hamda ularning monitoringini yuritish ko'zda tutilgan.

2026- yilning yanvar–mart oylaridan boshlab, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida, xalqaro ekspertlar tavsiyalari asosida savdo sohasi bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmini tovar-moddiy zaxiralardagi o'zgarishini hisobga olgan holda hisoblash metodologiyasiga o'zgartirishlar kiritildi.

2026- yil yanvar-may oylari ma'lumotlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlash maqsadida real o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davri uchun qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlar asosida hisoblandi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga eng katta hissa qo'shgan sohalar savdo xizmatlari (o'sishi **14,0** %ga, umumiy o'sishga **3,8** foiz band hissa qo'shdi), moliyaviy xizmatlar (**24,9** %ga, **3,7** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**14,1** %ga, **2,4** f.b.), transport xizmatlari (**13,3** %ga, **2,2** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,2** %ga, **1,5** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**21,0** %ga, **0,7** f.b.), boshqa xizmatlar (**15,8** %ga, **0,7** f.b.), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**17,5** %ga, **0,4** f.b.) va sog'liqni saqlash xizmatlari (**14,7** %ga, **0,3** f.b.)ga to'g'ri keldi. Ijara xizmatlari (**17,6** %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**15,3** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**13,0** %ga), hamda shaxsiy xizmatlar (**11,6** %ga) o'sishi umumiy o'sishga **0,8** foiz band ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur press-relizda keltirilgan va qayta ko'rib chiqilgan 2025- yilgi qiyosiy ko'rsatkichlar savdo xizmatlari hajmini hisoblashning yangilangan uslubiyotini o'z ichiga oladi, shu sababli ulardan 2026- yilning yanvar-may oylari bilan yillik taqqoslash uchun foydalanish lozim.

2026- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari ulushi **26,6** %, yashash va ovqatlanish xizmatlari **17,0** %, transport xizmatlari **16,0** %, moliyaviy xizmatlar **15,8** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,32** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5** % ulushni egalladi.

**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari**  
2026-yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025- yil	2026- yil	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>434 354,8</b>	<b>533 079,2</b>	<b>116,5</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	30 085,6	39 024,8	122,2
moliyaviy xizmatlar	64 061,9	84 183,6	124,9
transport xizmatlari	73 578,2	85 320,5	113,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	35 730,1	44 484,2	114,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	73 395,3	90 748,6	114,1
savdo xizmatlari	118 458,1	141 660,3	114,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	9 912,0	11 844,1	117,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	15 075,4	18 783,9	121,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	7 479,1	9 149,0	114,7
ijara xizmatlari	5 119,1	6 426,6	117,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	5 439,0	6 462,3	113,0
shaxsiy xizmatlar	7 645,5	9 312,7	111,6

me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 837,1	6 132,3	115,3
boshqa xizmatlar	19 268,5	24 030,5	115,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-may oylariga nisbatan savdo sohasida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmi **23 202,2** mlrd so'mga oshib, **141 660,3** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining umumiy hajmi tarkibida chakana savdo xizmatlarining ulushi ustunlik qilib, **41,7** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining ulushi esa **35,6** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha ishlab chiqarish xizmatlari, savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining umumiy hajmida **22,7** %ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlarining hajmi **17 353,3** mlrd so'mga oshib, **90 748,6** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur xizmatlarning asosiy qismi oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari hisoblanib, ulushi **96,1** %ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi **85 320,5** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustun bo'lib, ulushi **52,1** %ni yoki **44 484,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi yuk va yo'lovchi tashish sohasidagi faollikning ortganini aks ettiradi.

### Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi 2026- yil yanvar-may




2025- yil yanvar-may oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda moliyaviy xizmatlar hajmi **20 121,7** mlrd so'mga oshib, **84 183,6** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar-may oylari bilan solishtirganda **124,9** %ni tashkil etdi.

2026- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,9** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **6,7** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,4** %ni tashkil etdi.

2026- yilning hisobot davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **39 024,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur soha tarkibida kompyuter dasturlashtirish xizmatlari eng katta ulushga ega bo'lib, **46,1** %ni qayd etdi. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlari ulushi **29,7** %ni, axborot xizmatlari **15,1** %ni, nashriyot xizmatlari **6,7** %ni hamda boshqa xizmatlar **2,4** %ni tashkil etdi.

#### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi

yanvar-may, mlrd so'mda



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining yuqori ulushi mazkur yo'nalishning raqamli xizmatlarni rivojlantirishdagi muhim roldan dalolat beradi.

2026- yilning yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **18 783,9** mlrd so'mni tashkil etdi, uning tarkibida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar (**44,7** %) ustunlik qildi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi **11 844,1** mlrd so'mni tashkil etib, uning tarkibida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,4** % darajasida qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **9 149,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **63,2** %ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **20,0** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **16,8** %ni tashkil etdi.

#### IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Press-relizda keltirilgan ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Ma'lumotlar dastlabki hisoblanib, keyingi nashrlarda ularga aniqliklar kiritilishi mumkin.

**Bozor xizmatlari hajmi va ularning ulushi** joriy narxlarda keltirilgan.

**O'sish sur'atlari** tegishli narxlar va tariflar indekslaridan foydalangan holda taqqoslama narxlarda hisoblangan.

**Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:**

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi har oylik telefon so'rovnomalari, choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da, ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Agar xizmatlar real oldi-sotdi obyekti bo'lsa va ularning narxi iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi sarf-xarajatlarni to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar hamda elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Ulgurji va chakana savdo korxonalarini uchun ishlab chiqarish hajmi** tovarlarni qayta sotishdan tushgan tushum va ularni sotib olish xarajatlari o'rtasidagi farq hamda qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar zaxirasidagi o'zgarishlar yig'indisi sifatida aniqlanadi (*Eurostat, Handbook on prices and volume measures in national accounts, 2016 edition*).

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa) shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tranzaksiya sanasida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST** (Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi) bo'yicha G-S seksiyalariga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

## V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Handbook on prices and volume measures in national accounts

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Xizmatlar sohasi statistikasi  
boshqarmasi

**Manzil:** 100170, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.  
**Elektron pochta:** info@stat.uz  
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)

